

SHUHUR XOLMIRZAYEVNING SERQIRRA IJOD YO`LI

Qulmatov Umidjon Panjiyevich

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

“Yurisprudensiya” (faoliyat turlari bo`yicha) ta`lim yo`nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Shukur Xolmirzayevni adabiyot sohamizda keng inson deb aytaolamiz. Fikrimning dalili sifatida bu maqolamda Shukur Xolmirzayevning hayotidagi tanlagan yo`lni yoritishga harakat qildim. Boysunda, tog`li go`shalarda o`sgan navqiron ijotkorni dunyoqarashiga qiziqqanim bois uning ijodiga qiziqib, o`rganib yoritdim.

Kalit so`z: Boysun xalqi, tabiat, inson, o`zbek xalqi, bosmachilik, sho`ro davri, hayotiy jarayonlar, obrazlar, qissa, xalq yozuvchisi, Hamza

Mashhur adib Shukur Xolmirzayevning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag`ishlanganligi xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi. Adib o`zining ijod yo`lida inson, tabiat, taqdiri, zamon va vaqt mavzularini, hamohang yoritgan. Soddaligi bilan esa har qanday kishining ko`nglidan joy olgan. Adabiyotning bir nechta janrlarida o`zining munosib o`rniga ega teran shaxsdir. Uning hikoyalarda o`zining tug`ulib o`sgan maskani Boysun tog`lari, odamlarning yashash tarzlari ochiq yoritilgan. Shukur Xolmirzayev o`zbek hikoyachilik san`atining ustoz Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko`targan yozuvchilardan biridir. Asarlari sodda tilda bo`lishga qaramay real voqelar asosida yoritilgan. Atrofidagi bazi mazlum voqelarga bee`tibor bo`lmay vatan uchun kurashgan kishilar ozodlik uchun qilingan harakatlar, bosmachilik, sho`ro davridagi hayot tarzini yaqqol ochib bergan. Bu bilan jamiyatda ezilgan xalqning taqdiriga befarq emasligini, o`zining sof dalilini ko`rsatib bergan. Shunday asarlaridan biri **“Qora Kamar”** pyesasida 20-yillardagi milliyozodlik yo`lida olib borilgan kurash aks ettiriladi. Parchalangan Turkiston Muhtoriyatining jabrlangan xalqi hayoti yoritilgan. **“Olabo`ji”** romanida esa sho`ro davri tuzumi jarayonlari ochib berilgan. Shukur Xolmirzayev yozuvchilar orasida birinchilardan bo`lib, o`zbek xalqi tarixining **“bosmachilik harakati”** deb atalgan davrni o`rgana boshladi. Yozuvchining **“Qil ko`prik”** romani va **“Qora Kamar”** pyesasi shu mavzuni qamrab oladi. Shukur Xolmirzayevning so`ngi asari **“Dinazavr”** romanida ham sho`ro davlatining xalqparvar davlati ekaniga, harakatlarning barchasiga mamlakat manfaatiga xizmat qilishi, xalq orasidagi ziddiyatli tasviri mazkur romanning markazida turadi. O`zbek hikoyachiligida ham Shukur Xolmirzayev ancha boy ijodkor hisoblanadi. **“Saylanma”** asarida 3 jildda 87 hikoyalari uning butun ijodi xususan kichik janrdagi samarali faoliyati haqida to`laqonli tasavvur

bera oladi. Asarlaridagi uzilishlarning yoqligi rus adabiyotida A.P.Chexov, o`zbek adabiyotida A.Qahhor ijodida kuzatilgan. Taraqiyotchilar haqli ravishda ta`kidlashganidek, bu borada Sh. Xolmirzayev Chexov va Abdulla Qahhorning haqli izdoshidir.

Xulosa o`rnida, O`zbekiston Qahramoni, O`zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov shunday yozgan edi: “Men o`zimni qanchalik bilsam, Shukur Xolmirzayevni ham shunchalik bilaman desam to`g`ri bo`ladi. Shukur Xolmirzayev o`ziga xos uslubi ikkita omilga ko`ra shakllangan. Birinchidan, til xususiyatiga ko`ra , ikkinchidan, xalq dostonlari , ertak-u rivoyatlar, maqola –matallarga tayangan individuallik tabiatiga ko`ra realist yopzuvchi edi”. Realizmi o`zining asarlarida aniq yoritilgan. Shukur Xolmirzayev o`zining o`zligini topgan adib. Shu sababli ham uning qahramonlari, yozish uslubi hech kimnikiga o`xshamaydi. Tanlangan mavzu, topilgan g`oya hamma vaqt ham orginal bo`lmasligi ham mumkin, gap uni yuqori saviyada tasvirlashda ko`rsatib berishdadir. Uslubi U.Nazarovda “Tushuntirish uslubi”, O`tkir Hoshimovda “Izohlash uslubi” kuzatilgan. Shukur Xolmirzayevda esa “Ruhiy holatni tasvirlash” ustuvorlik qiladi. Uning ilk so`ziyoq holat tasviridan boshlanadi. Bu ham yozuvchining ifoda usulida o`ziga xoslik mavjudligidan dalolat beradi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Shukur Xolmirzayevning “Saylanma” asari
2. O`z.Lib. Elektron Kutubxonasi
3. O`zbekiston milliy ensklopediyasi